

## SUVO'TLAR EKOLOGIYASI VA AHAMIYATI

Jo'rayeva Oydinoy

Andijon Davlat Pedagogika instituti

Biologiya yo'nalishi talabasi

[oydinoyjorayeva386@gmail.com](mailto:oydinoyjorayeva386@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498785>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda suvo'tlarining ekologiyasi va tabiatdagi ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar.** Algalogiya, yashil suvo'tlar, ko'k-yashil suvo'tlari, qizil suvo'tlar, qo'ngir suvo'tlar, tillarang suvo'tlar, sariq-yashil suvo'tlar, diatom suvo'tlar, perrofit suvo'tlari, evglena suvo'tlari, monad struktura, kokkoid struktura, plastinkasimon struktura, sifonal struktura.

Suvo'tlarini algalogiya fani o'rganib, tuban o'simliklar orasida turlarga boyligi jihatidan zamburug'lardan keyingi o'rinda turishi o'rganilgan. Suvo'tlari dunyo okeani biomassasining 80% ini hosil qilib dunyo okeani hayvonlarining asosiy ozuqa manbai vazifasini bajaradi. Bundan tashqari fotosintez jarayonini amalga oshirib suv muhiti uchun, suvdagi hayot uchun 1.5 trillion tonna kislorod ishlab chiqaradi. Suvo'tlari morfologik tuzilishiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Bularga monad struktura, ko'kkoid struktura, ipsimon struktura, har xil ipsimon-geterotrixial struktura, plastinkasimon struktura, sifonal struktura, sifonoklodial ipsimon struktura, rizopodial struktura va palmelloid strukturaga bo'linadi. Masalan: kokkoid strukturali suvo'tlari bir hujayrali yoki kollonial tuzilishga ega bo'lib, vegetativ davrida harakatsiz bo'ladi. Suvo'tlar asosan 9 ta katta bo'limga bo'linadi. Bular ko'k-yashil suvo'tlari (Cyanophyta), qizil suvo'tlar (Rhadophyta), qo'ngir suvo'tlar (Phalophyta), sariq-yashil suvo'tlar (Xanthophyta), diatom suvo'tlari (Bacillariophyta), perrofit suvo'tlari (Pyrrophyta), yashil suvo'tlar (Chlorophyta), tillarang suvo'tlar (Chrysophyta), evglena suvo'tlari (Euglenophyta)dir. Bu bo'limlar hammasi alohida sinf, tartib, turkum va turlarga bo'linadi. Masalan ko'k-yashil suvo'tlari 3ta sinfga bo'linadi:

1-Xrokoksimonlar sinfi (Chrococlophyceae)

2-Xamesifonsimonlar sinfi (Chamesiphonophyceae)

3-Gormogonsimonlar sinfi (Hormogoniophyceae)dir.

Bu suvo'tlari tarkibida turli xil moddalarni, pigmentlarni saqlaydi. Bu modda va pigmentlarga xlorofill "a", "b", "c", "d", neoksantin, lyutein, fukoksantin, karontin, ksantofill, fikotsian kiradi. Zahira modda sifatida kraxmal saqlanadi. Suvo'tlar tabiatda kislorod ishlab chiqaruvchi asosiy manbalardan biri bo'lib, oziq zanjirida muhim o'rin egallaydi. Inson hayotida ular tibbiyotda, oziq-ovqat sanoatida bioyoqilg'i sifatida va suvni tozalashda qo'llaniladi. Suvo'tlari yashash muhitiga ko'ra quruqlikda va suvlikda yashaydiganlariga bo'linadi. Suvo'tlari ekologik jihatdan turli xil mintaq va iqlimlarda o'sishga moslashgan. Daryolarda, daryolarning chuqur qatlamlarida, organik moddaga boy suv havzalarida, toza, tiniq va iliq suv havzalarida, hovuzlarda va hattoki ifloslangan suvlarda ham o'sishga moslashgan. Masalan diatom suvo'tlari harorati va kimyoviy tarkibi har xil bo'lgan dengiz va okean suvlarida, chuchuk suvlarda bentos va plankton organizm hisobida hayot kechiradi. Suvo'tlari — tabiatda uchraydigan eng ajoyib va foydali mahsulotlar hisoblanadi. Suvo'tlari noyob foydali moddalarga juda boy bo'lgani tufayli ular keng ko'lamli foydali xususiyatlarga ham egadir. Suvo'tlarining foydali xususiyatlari. Qonni tozalash: Suvo'tlarining kimyoviy

tarkibi odam qoni plazmasi bilan juda o'xshash, shuning uchun suvo'tlari qonni tozalash va undagi balansni muvozanatlash xususiyatiga ega. Kalsiy manbai: Suvo'tlarida sutdagidan 10 marta va go'shtdagidan esa 8 marta ortiq kalsiy moddasi mavjud. Ishqorlanish: Suvo'tlari kislotalilikni me'yorda saqlagan holda qonning ishqorlanishini oshirish xususiyatiga ega. Suvo'tlari tarkibida saraton kasalligining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, antioksidant xossasiga ega bo'lgan lignan (fitogormon)lar mavjud. Dengiz karami (Laminariya). Bu jigarrang suvo'ti ko'pincha okean qirg'oqlarida uchraydi. Uni an'anaviy Osiyo taomlarida ko'p ishlatishadi. Lekin, laminariyaning foydali samarasini qo'shimcha ozuqalardan olsa ham bo'ladi. Qizil suvo'tlari. Suvo'tlarining bu turini butun holida yoki yorma ko'rinishida sotib olish mumkin. Yorma ko'rinishidagi suv o'tlarini salatlarga, sabzavotli garnirlarga va sho'rvalarga qo'shsangiz bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki suvo'tlari inson hayotida va tabiatda juda katta o'rin tutadi. Suvo'tlari suv muhiti uchun kislorod manbai, suv hayvonlari uchun ozuqa manbai hisoblanadi. Tarkibida turli xil moddalarni saqlaydi. Suvo'tlarning ekologiyasi haqida gap ketadigan bo'lsa ular turli xil muhitda, turli xil sharoitda yashashga moslashgan.

#### References:

1. Botanika. Tuban o'simliklar. Tojiiboyev SH.pdf
2. Tuban o'simliklar (L.Velikanov va boshq.) pdf
3. <https://daryo.uz/2017/04/10/suv-otlari-suvosti-dunyosining-inson-uchun-foydasi>
4. [https://t.me/tabiiyfanlar\\_elektronkutubxonasi](https://t.me/tabiiyfanlar_elektronkutubxonasi)